



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ANDIJON VILOYATI XALQ TALIMI PEDAGOG XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**IJTIMOY FANLAR VA M'ANAVIYAT ASOSLARI  
KAFEDRA O'QITUVCHISI**

**ZULUNOV QODIRJONNI**

**Davlat va huquq asoslari kursini o'qitish metodikasidan**

# **MA'RUZA MATNLARI**

**Andijon – 2006 – yil**

**ANDIJON VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”  
Ilmiy va o’quv-uslubiy ishlar  
bo’yicha prorektor**

\_\_\_\_\_ **O.Jabborov**

**Ma’ruza matnini ijtimoiy fanlar va ma’naviyat asoslari kafedrasining  
2006 – yil \_\_\_\_\_ kungi yig’ilishida muhokama qilindi va  
foydalanishga ruxsat berildi**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Kafedrasi mudiri:**

**M.Mo’minov**

**Ma’ruzachi:**

**Q.Zulunov**

## **REJA:**

1. Davlat va huquq tushunchalari davlat shakllari  
O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. Jamiyat, davlat, huquq: zamonaviy rivojlanish  
tendisiyalari va istiqbollari,  
Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni  
shakllantirish yo'llari.
3. Huquqiy davlat va hokimiyatlarning bo'linishi tamoyili,  
O'zbek milliy davlatchiligining zamonaviy rivojlanishi

## «Davlat va huquq asoslari» kursi bo'yicha davlat talablari.

- Davlat va huquq;
- Davlat qurilishining asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Davlat ramzlari;
- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy tuzumi;
- Hokimiyatning taqsimlanish printsiplari;
- O'zbekistonda jamiyatni isloh etishning 5 tamoyili;
- Fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- Saylovlar, saylov tizimi;
- O'zbekiston Prezidentining vakolotlari;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklari va ularni himoyalash;
- Huquq turlari;
- Vijdon erkinligi;
- Xalq hokimiyatchiligi;
- Siyosiy partiyalar;
- Jamoat birlashmalari haqida to'liq tushuncha va ma'lumotga ega bo'lishlari kerak;
- O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risidagi farmoyishining mazmun mohiyati;
- Hujjatning asosiy yo'nalishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2005-2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risidagi qarorini bilish lozim."

### «Davlat va huquq asoslari» kursining taqvimiy-mavzuiy rejasi

№	№	Mavzular	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot
<b>I</b>	<b>1</b>	Davlat va huquq tushunchalari.	2	2	
	<b>2</b>	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.			
<b>II</b>	<b>1</b>	Jamiyat, davlat, huquq: zamonaviy rivojlanishning tendentsiyalari va istiqbollari.	2		2
	<b>2</b>	Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni shakllantirish yo'llari.			
<b>III</b>	<b>1</b>	Huquqiy davlat va hokimiyatlarning bo'linish tamoyili.	2		2
	<b>2</b>	O'zbek milliy davlatchiligining zamonaviy rivojlanishi.			

## MAVZU -1. DAVLAT VA HUQUQ TUSHUNCHALARI

### **Maqsad:**

a) ta'limiy tinglovchilarga huquq tushunchalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy-fuqarolik burchini bajarish;

v) rivojlantirish hayotda faol pozitsiyada turish, bilish, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llashni bilish;

**Mashg'ulot tipi:** yangi bilimlar berish;

**Mashg'ulot metodlari:** suhbat, munozara, test, savol-javob;

**Tayanch iboralar:** davlat, huquq, Konstitusiya, demokratiya, fuqarolik jamiyati, hokimiyat.

### **Davlat talablari:**

-Davlat qurilish asoslari;

-fuqarolarning huquq va erkinliklariga va ularni himoyalashni bilish;

### **Reja.**

1. Davlat va huquq tushunchalari.

2. Davlatning belgilari va funksiyalari.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.

4. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini vujudga kelishi.

5. Davlat hokimiyatini taqsimlash.

### **1. Davlat va huquq tushunchalari.**

Davlat va huquqni kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkirlar, faylasuflar, yuristlar, tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqni kelib chiqishi haqida turli xil nazariyalar bor.

Darhaqiqat ibtidoiy davrni olimlar arxeologik ma'lumotlarga asosan uch bosqichga bo'ladilar.

**Birinchi bosqich** -bu ibtidoiy odamlar to'dasi davri. Ushbu davrda sun'iy mehnat qurollari paydo bo'ladi va odamlar hali mustahkam bo'lmasa ham dastlabki mehnat jamoalariga birlashadilar.

Odamlar asta-sekin o'z ajdodlaridan o'tgan xayvoniy odatlardan qutila boradi. Bu davr insoniyat kamolotining ilk bosqichi edi.

**Ikkinchi bosqich** -ibtidoiy jamoa davri deb ataladi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar ma'lum darajada rivojlanadi, masalan mehnat qurollari yaratiladi. Insoniyat tarixida birinchi ijtimoiy birlashma -ibtidoiy jamoa paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoaning asosiy xususiyati mehnat va mehnat mahsulidan teng foydalanishda namoyon bo'ladi.

**Uchinchi bosqich** -ibtidoiy tuzumning inqiroziy davri. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar tez rivojlanadi, odam tosh qurollar o'rniga metal qurollardan foydalana boshlaydi. Xo'jalik tarmoqlari rivojlanadi va qo'shimcha mahsulot paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining rivojlanishi shaxsiy mulkning yuzaga keltiradi va ijtimoiy tengsizlikka olib keladi.

Iqtidoiy jamoa tuzumida odamlar o'zlarining yakka-yakka holda yovvoyi hayvonlardan va tabiiy ofatlardan himoya qilolmas edilar. Shuning uchun ular barcha ishlarni uyushgan holda bajarardilar. Birgalikda mehnat qilish va yaxshiy xayvonlarga qarshi kurashish odamlarni bir-biriga jipslashtirgan. Natijada odamlarning to'dalari qarindoshlarining doimiy jamoasiga aylanadi. Bu urug' jamoasi deb atalgan jamoada mehnat qurollari tayyorlash, ovqat topish ishlariga urug'ning eng tajribali va hurmatli kishilar, ya'ni oqsqaqollar rahbarlik qilishgan. Urug' oqsqaqollari urug'doshlari bilan bamaslaxat ish tutishgan. Odamlar shu jamoada amal, hulq-atvor va yurish-turish qoidalariga rioya qilganlar. Agar bu qoidalar buzilsa, buni butun urug', uning yig'ilishi muhokama qilgan. Alohida bu ishlarni hal qilish uchun oqsqaqollar jamoalarining katta yoshdagi a'zolarini chaqirib, yig'in o'tkazganlar. Bu davrda urf-odat qoidalari amalda bo'lgan.

Kishilarning yurish-turishida hamma uchun ma'qul bo'lgan qoidalar qaror topgan bo'lib, jamoa o'zlarining o'rtasida ishonch va madadkorlik kishilarga odat bo'lib ketgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida mehnat qilish yo'li bilan ovqat topishdan dehqonchilik vujudga keladi, chunki odamlar erga tushgan dondan yangi poya o'sib chiqishini payqaydilar.

Ovchilarning hayvonlarni qo'lga o'rgatishi sababli chorvalik paydo bo'ladi. Keyinchalik odamlar metaldan mehnat qurollari yasashni, undan foydalanishni o'rganadilar. Omoch ixtiro qilinib, erga ishlov berish tezlashadi. Hosildorlik oshadi. Mehnat unimdorligi o'sadi. Bu esa ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilishiga sabab bo'ladi. Oqsaqollar oilalarga chek erlarni bo'lib beradilar. Har bir oila o'z erida ishlab o'zlarining mehnat qurollariga, chorva mollariga ega bo'ladilar. Olingan hosil shu oilaga tegishli bo'lgan.

Urug'umumiy xo'jaligining o'zgarishi bilan oqsaqollar jamoa ishlarini bajarganligi uchun jamoadagi oilalar o'zlarining hosillaridan bir qismini ularga berar edilar. Natijada ba'zi oilalar boyib ketar edilar. Jamiyatda boylar va kambag'allar vujudga keladi. Jamoa mulkidan xususiy mulkchilik ajralib chiqadi. Keyinchalik urug' jamoalari o'rtasida yaxshi er maydoni, chorva mollari va metallari uchun urushlar boshlanadi. Urushlarga xarbiy boshliqlar rahbarlik qiladi. Asir olinganlar majburiy xizmatga tortiladi. Bu esa sinflarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

SHunday qilib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik va sinflarning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumi negizida quldorlik tuzumi paydo bo'ladi. Oqsaqollar va harbiy boshliqlar hokimiyati va davlat hokimiyatiga aylanadi. Davlat hokimiyati shunday bir kuch bo'lgan ediki, uning yordamida quldorlar ekspluatatsiya qilinuvchilar o'stidan o'z hukmronliklarini saqlab turishgan. Davlat iqtisodiy jihatdan hukmron bo'lgan sinfning siyosiy tashkiloti bo'lgan.

Davlatning paydo bo'lishi natijasida urug' jamoasi a'zosilarining mehnati va hayotiy tartibga solib turuvchi tushmush, urf-odat qoidalari o'rnini Davlat hokimiyatini o'z qo'lga olgan sinflarning qonun darajasiga ko'tarilgan irodasi bo'lgan huquqiy qoidalar egallaydi. Demak, davlat paydo bo'lishi bilan huquq ham paydo bo'ladi. U ham davlat singari hukmron sinflarning manfaatini himya qiladi.

Bunday xulosa qilib aytish kerakki, ibtidoiy jamoa davriga qadar, hech qanday davlat ham, huquq ham bo'lmagan, ibtidoiy jamoa rivojlanishi oqibatida, sinflar paydo bo'lgan so'ng davlat va huquq paydo bo'lgan.

## **2. Davlatning belgilari va funksiyalari.**

Biz yuqorida aytib o'tkanimizdek, davlat bilan bir qatorda huquq paydo bo'lgan, shunga ko'ra o'z kishini, polisiya, sud, prokuratura, soliq va boshqaruv apparatlariga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi kunga kelib bizni davrimizda, davlat va shu darajada rivojlanadiki, uni mohoyatini tushinishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud:

- 1) ijtimoiy
- 2) sinfiy
- 3) siyosiy-huquqiy

ya'ni: 1-Davlat umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdor va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi.

2- Davlat sinflarini paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib, xizmat qilgan.

3- Davlat jamiyatining va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlat -suverinitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini homoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkilotidir.

Davlat jamiyat siyosiy tizimining, odamlar, guruhlar, sinf tashkilot, hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institutdir.

Davlat -hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi. "Hokimiyat", "Davlat va siyosat" tushunchalari bir-biriga juda yaqin bo'lib, bir-birini belgilab beradi.

### **Davlatning belgilari:**

1. O'ziga xos ommaviy hokimiyatning -davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining majburlash apparatining borligi.

2. Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy -hududiy birliklarda yashashini bildiradi.

3. Suverinitet, ya'ni ichki va tashqi siyosatini o'tkazishda mustaqil bo'lish.

4. Huquq ijodkorligi, ya'ni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirlik.

5. Aholidan davlat apparatini saqlash hamda aholining ka ta'minlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan soliklarni to'plash.

6. Umuminsoniy funksiyalarni (vazifalarni) bajarish, ya'ni hududni qo'riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash umumiy faravonlik maqsadlarini amalga oshirish.

### **Davlatning asosiy funksiyalari.**

Davlatning asosiy funksiyalari davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridi, bu ichki va tashqi funksiyalardan iborat:

#### *Ichki funksiyalar:*

1. Regulyativ (tartibga solish, boshqarish).

2. Qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish).

-Regulyativ funksiya davlatning iqtisdiy va ijtimoiy sohadagi o'rnini belgilaydi.

IQTISODIY—jamiyat iqtisodiy hayotiga ta'sir etish. Iqtisodiyotning davlat sektorlarini boshqarish.

IJTIMOY—ijtimoiy boylikni mehnat ulushiga bog'liq bo'lmagan holda taqsimlash.

MOLIYAVIY NAZORAT--solih solish

bojxona nazorati

u ham solih solish

-Qo'riqlash funksiyasi -davlatning huquq bilan mustahkamlangan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarini ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan quyidagi faoliyatini taqozo etadi.

a) fuqarolar huquq va erkinliklarini muxofaza qilish

b) tabiatni muxofaza qilish

v) barcha shakllardagi mulklarni himoya qilish

g) huquqni muxofaza qilish

**Tashqi funksiyalar, davlatning xalqaro maydondagi faoliyatining asosiy yunalishidir.**

#### *1. Xalqaro hamkorlik:*

— tashqi siyosat faoliyati

— tashqi iqtisodiy faoliyat

#### *2. Mudofa va xavfsizlik:*

Xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun hayotiy zaruriyatdir. År yuzida hozir 235 ta davlat bor. Ularning har biri me'yorida hayot kechirish va o'zaro hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi.

Suverin davlat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi jahondagi barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, eng nufuzli xalqaro tashkilot bo'lgan BMTning a'zosisdir.

Davlatning mamlakat mudofasini eng avvalo mamlakatning qurolli kuchlari hamda milliy xavfsizlik xizmati bajaradi.

### **Davlat shakllari.**

Davlat shakli deganda, davlat tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashki xususiyatlari tushiniladi. Davlat shakli quyidagi 3 elementdan iborat tushunchadir.

1. Boshqaruv shakli.
2. Davlat tuzilishi.
3. Siyosiy rejim.

1-Boshqaruv shakli deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholi bilan o'zaro munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushiniladi.

Boshqaruv shakliga ko'ra davlatlar Monarxiya va Respublikaga bo'linadi. Monarxiya so'zi yunoncha "yakka hokimlik" ma'nosini bildiradi. Monarxiya oliy hokimiyatga yakka hokim davlat boshlig'ining qo'lida bo'lgan va bu hokimiyat meros qilib beriladigan davlat boshqaruv shaklidir.

#### ***Monarxiyaning asosiy belgilari:***

1. Monarx davlatning shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i sifatida maydonga chiqadi.
2. Monarx davlatni yakka o'zi boshqaradi.
3. Monarx hokimiyatini muqaddas deb e'lon qilinadi.
4. Monarx faoliyatida rasman mustaqildir.
- 5 Hokimiyatning o'rnatish, qabul qilish (legitimlashtirish)ning alohida tartibi mavjud.
6. Muddatsiz, umrbod boshqaradi.
7. Monarx o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya mutlaqo cheklangan (yoki parlamentar) shakllarda bo'ladi. Saudiya Arabistonda bunday monarxiyamutloq monarxiya deb ataladi. Agar monarxning hokimiyatiKonstitusiyasida amal qiladigan biron-bir vakolatli idora bilan cheklangan bo'lsa, bunday monarx - cheklangan, konstitusiyaviy, parlament shaklida bo'ladi (masalan Buyuk Britaniya, Daniya, norvegiya, SHvesiya...)

Respublika So'zi yunonchada "umumiy ish" ma'nosini bildiradi. Respublika - hokimiyatining oliy idoralar muayyan muddatga saylanadigan davlat boshqaruv shaklidir.

Respublikaning asosiy belgilari:

- 1.Hokimiyat oliy idoralarining saylab qo'yilishi
- 2.Hokimiyat vakillarining taksimlanishi
- 3.Hokimiyat oliy organlarining o'z qarorlarini uzoq vaqt davomida qabul qilish
- 4.Qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ bo'lgan sudlar obro'yining ortishi
- 5.Fuqarolarni davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi

Respublikalar - prezidentlik respublikasi va parlamentar respublikalarga bo'linadi. Prezidentlik respublikasida davlatni xalq tomonidan saylanadigan, juda keng vakolatlarga ega bo'lgan Prezidentlik boshqaradi. Udavlatning ham, hukumatning ham boshlig'idir. Prezidentlik respublikaga misol sifatida AQSH va O'zbekiston respublikasini keltirish mumkin.

Parlamentar respublikada davlat boshlig'i -saylanuvchi mansabdor shaxs juda kichik vakolatlarga ega. U hukumatning boshqarmaydi (hukumatni bosh vazir boshqaradi). Parlamentar respublikaga Avstriya, Italiya, Germaniya misoldir. Respublika shaklidagi boshqaruvni yangi bir ko'rinish oralash boshqaruvdir. Bunda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari oralashib ketgan. Masalan: Fransiyada Prezidentni xalq saylaydi, u juda ko'p vakolatlarga ega, ammo hukumatni boshqarmaydi.

#### **2.Davlat tuzulishi**

Davlat tuzum bo'yicha barcha davlat quyidagi turlarga bo'linadi.

- 1-unitar
- 2--federal
- 3-konfederativ

**Unitar davlat-** bu oddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, o'g'ruq, voevodstvo, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan ma'muriy -hududiy birliklarga bo'linadi. Bunday

davlatga bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo'ladi. Unitar davlat odatda bir millatli bo'ladi.

Bunda yagona pul birligi, yagona armiya, yagona fuqarolik, ijroiya, sud organlari bo'ladi.

**Federativ davlat**-murakkab, ittifokdosh davlat. Odatda u bir qator davlatlarning birlashuvidan iborat bo'ladi. Ular turlicha atalishi mumkin, ya'ni shtatlar, o'lkalar, avtonom respublikalarga ega bo'lishi mumkin.

*Federativ davlat belgilari:*

- 1.Federasiya hududi uning sub'ektlari hududidan tashkil topadi.
- 2.Oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini federal davlat organlariga tegishli bo'ladi.
- 3.Federasiya sub'ektlari va federasiyaning o'zi o'rtasidagi vakolatlar ittifoq konstitusiyasi bilan ajratiladi.
- 4.Federasiya sub'ektlari o'z konstitusiyasi, o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega.
- 5.Federasiyaning oliy qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasi ikki palatali tuzulishiga ega.
- 6.Ikki fuqarolik (ittifoq va federasiya sub'ektlari fuqarosi).

*Federasiya hududiy va millat turlariga bo'linadi:*

- 1.Federasiyaning ushbu turini tashkil etuvchi davlat tuzulmalari suverin davlat bo'lmaydi.
- 2.Sub'ektlar xalqaro munosabatlarda bevosita ishtirok etish huquqidan konstitusiyasi bilan mahrum etilgan.
- 3.Ittifoqdan chiqish ta'qiqlangan.
- 4.Qurolli kuchlarni ittifoq idorasi boshqaradi.

Milliy federasiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1).Sub'ektlari -milliy davlatlar va milliy davlat tuzulmalari.
- 2).Federasiya sub'ektlari ixtiyoriylik prinsipiga muvofiq birlashadilar.
- 3).Katta-kichik millatlar suveriniteti kfolatlanadi.
- 4).Oliy davlat idoralari federasiya sub'ektlarining vakillaridan tashkil etiladi.
- 5).Millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ladi.

Jahonda 20 dan ko'proq federasiyalar bor. Federasiya va ular sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar har doimuyg'un emas. Tez-tez uning aksi ham bo'lib turadi. Milliy hududiy prinsip bo'yicha tuzulgan federasiyalardan Sovet Ittifoqi, YUGoslaviya, CHexoslovakiya tarqalib ketdi.

Hozir amal qilayotgan federasiyalarning misoli sifatida AQSH, Germaniya Federativ Respublikasi, Braziliya, Rossiya Federasiyasi, Hindistonni keltirish mumkin.

3-KONFEDARASIYA -o'z suveriniteti, o'z mustaqilligini saqlab qolgan holda u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqidir. Konfederasiyada yagona fuqarolik bo'lmaydi.

*Konfederasiya belgilari:*

- 1.Konfederasiya-muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqi.
- 2.Konfederasiya-mustahkam bo'lmagan tuzulma.
- 3.Yagona hududning yo'qligi.
- 4.Yagona fuqarolikning bo'lmasligi.
- 5.Konfederasiya sub'ektlari undan erkin chiqish huquqiga egadirlar.
- 6.Konfederasiya sub'ektlari ittifoq hokimiyati qonunxujatlarini kullifikasiya qilish (e'tirof etmaslik yoki qo'llamaslik) huquqiga egadirlar.
- 7.Konfederasiya vakolatiga uncha ko'p bo'lmagan (urush va tinchlik, xalqaro siyosat va x.k.) masalalarini hal etish kiradi.
- 8.Konfederasiya byudjeti uning a'zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

Konfederasiya misoli sifatida 1848 yilgacha bo'lgan SHveysariyani, hozir esa Avropaning 15 davlatini birlashtirgan Avropa Ittifoqini keltirish mumkin.

## DAVLAT SHAKLLARINING 3-UCHINCHI ELĀMĀNTI SIYOSIY RĀJIM

Bu rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usul yo'llarining majmuasi bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

Xalq hokimiyati - inson siyosiy va fuqarolik huquqlarining kengligini, fuqarolarning davlat hokimiyati idoralarining tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etishini, xalq irodasini demokratik hokimiyatning yagona manbai deb bilishni anglatadi.

*Xalq hokimiyatchiligi ikki shaklga ega:*

vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya.

**Vakilliy demokratiyasi**- xalqning o'z hokimiyatini vakillik idoralari, ya'ni demokratik hokimiyatning va mahalliy o'zni-o'zi boshqarish idoralarining saylab qo'yiladigan organlari orqali amalga oshirilishini bildiradi.

**Bevosita demokratiya**- xalqning demokratik hokimiyat hokimiyat masalalarini hal etishda umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish.

*Demokratik rejim belgilari:*

1. SHaxsning iqtisodiy sohadagi erkinligi.
2. Inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e'lon qilinishi va kafolatlanishi.
3. Barcha shakllardagi va tom ma'nodagi demokratiya.
4. Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi.
5. Ijtimoiy hayotda fikrlar xilma-xilligi, plyuralizm ijtimoiy birlashmalarining ko'pligi.
6. Qonun ustivorligi.

Agar davlatda demokratik rejim hukumron bo'lsa, demak bu davlatda fuqarolar umum e'tirof etgan huquq va erkinliklardan to'la foydalanadilar, davlat esa ularni nafaqat tan oladi, balki har tomonlama himoya qiladi. Bundan tashqari, bunday davlatda mafkuraviy va siyosiy xilma-xillik Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yiladi, siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruhsat beriladi. Siyosiy partiyalar oliy va mahalliy idoralariga deputatlarni saylashda ishtirok etish orqali iloji boricha ko'proq a'zolarini hokimiyat idoralariga kiritishga harakat qiladilar. Qoida tariqasida, demokratik saylovda g'alaba qilgan siyosiy partiyalar hukumatni tuzish va shu tariqa o'z siyosatini o'tkazish huquqiga ega bo'ladilar.

Endi xurmatli tinglovchilar, Demokratiya rejim to'g'risida birmuncha gaplashib oldik. Ikki og'iz so'z antidemokratik rejim haqida, bu rejimning belgilari quyidagilardan iborat:

1. Davlatni huquqdan ustunligiga misol: paxtachilikda g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashda dorilardan shavqatsiz foydalanish.

2. Davlatning jamiyat hayotidagi barcha sohalarini nazorat qilish.

3. Davlat shaxs manfaatlariga befarqligi.

4. Jamiyat tashkilotlarining davlatlashtirilishi (misol: kolxozni sovxozga aylantirilishi).

5. Ijtimoiy hayotning butunlay xarbiylashtirilishi.

6. Kam sonli millatlar manfaatlariga e'tibor bermasligi (misol: mahalliy millat va rus millatidan keyin boshqa millatga kam e'tibor qaratilar edi.)

Andidemokratik rejimlar ichida fashistik va totalitar rejimlarni ko'rsatish mumkin.

*Fashistik rejim*-1933-1945 yillardagi Germaniya va o'sha davrdagi fashistlar Italiyasi.

*Totalitar rejim*- bir partiyaning hukumronligi, huquq va erkinliklarini poymol etilishi, ko'pincha esa ularning yoppasiga buzilishi, o'zgacha fikrlashga qarshi kurash, saylovchilarning saylovda muqobil imkoniyatining bo'lmasligiga asoslangan boshqaruvi deb ta'riflanadi. Misol: SSSR ni keltirish mumkin.

Siyosiy rejim -unga rejimni targ'iboti bilan ish qilgan.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,  
O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik**

## **jamiyatini vujudga kelishi. Davlat hokimiyatini taqsimlanishi**

O'zbekistonda istiqloq yillari davomida miliy davlatchilik shakllandi. Ozod va suveren davlatning huquqiy asoslari yaratildi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining maqsadlari va vazifalarini belgilovchi konstitutsiya va bir qator qonunlar qabul qilindi.

Suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi ko'p asrlik o'z huquqiy tarixi bo'lib, u milliy davlatchilikning ichki va tashqi rivojlanish sub'ekti sifatidagi mustaqilligi va o'ziga xosligi talablariga javob beradi.

Konstitutsiya -lotincha so'z bo'lib, uning ma'nosi "tuzish", "tuzik", "nizom", "tuzilish", "yaratish" demaktir.

Konstitutsiya -atamasi o'zining uzoq tarixiga ega. Ana shu ma'noda aytish kerakki, XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida davlatning holatiga hal qiluvchi ta'sirini o'tkazgan. Amir Temurning tuzuklari SHariat bilan bir qatorda amal qilgan SHarq madaniyatiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy xujjat bo'lgan.

Jahon sivilizatsiyasi o'zining tarixiy rivojlanish davomida bugungi kunda amal qilinayotgan ikki guruhdagi konstitutsiyalarni yuzaga keltirdi.

**Birinchi guruhni** -bugungi kundagidan keskin farq qiladigan sharoitlarda qabul qilingan konstitutsiyalar tashkil etildi. Bunday konstitutsiyalarning eng yorqin na'munasi 1787 yilgi AQSH konstitutsiyasi, 1831 yilgi Belugiya va 1874 yildagi SHvesariya konstitutsiyalaridir.

**Ikkinchi guruhga** -XX asrning II-yarmida qabul qilingan "yangi avlod" konstitutsiyalari kiradi. 80-yillarning oxirlari 90-yillarning I-yarmi socialistik tuzum tugatilgan butun makonda suronli konstitutsiyaviy islohotlar davri bo'ldi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi zamonaviy konstitutsiyaviy qurilishdagi umume'tirof etigan yondashuvlarni xalqning tarixiy, huquqiy, ma'naviy tarbiyasi va an'analari bilan uzviy yg'unlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni mustaqil konstitutsiyaviy rivojlanishning muhim bosqichidir. Konstitutsiyaning qabul qilinishi, mamlakatda demokratik konstitutsiyaviy tuzimning O'zbekiston fuqarolar hayotining, sog'lom va oqilona asoslarining mustahkamlanishi, konstitutsiyaga, huquqqa va qonunga hurmatni, do'stlik va ijtimoiy birdamlikni tarbiyalash, moddiy faravonlik va ma'naviy tiklanish yangilanayotgan O'zbekistonda boshlangan konstitutsiyaviy jarayonning tarkibiy qismlaridir.

Byuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosiga amda ko'p ming yillik tarixi va madaniyatiga asoslangan ma'naviy hayot qayta tiklanmoqda, qisqacha qilib aytganda, barcha huquqiy an'alarimiz yurtimizga qaytib kelmoqda. Odamlarning huquqiy dunyoqarashi mehnatga, hayotga munosabati o'zgarmoqda. Ular demokratik huquqiy davlat, bozor iqtisodiyoti qadriyatlarida faolroq ishtirok etmoqdalar.

Bu chuqur o'zgarish suveren O'zbekistonning Asosiy Qonuni bo'lmish - Konstitutsiya muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasi jahon konstitutsiyaviy xaritasida o'zining munosib o'rnini egalladi. U O'zbekiston hududida yashayotgan xalqning irodasi, ruhiyati, ijtimoiy onggi va madaniyatini aks ettirdi.

Konstitutsiya, avvalambor, umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning ustunligi pronsipiga amal qiladi. Unda biror siyosiy mafkuraning cheklanishi, sinflarning qarama-qarshi qo'yilishi, partiyalarning hukmronligi yo'q. SHuningdek, davlatning fuqarolar ustidan tazyiq o'tkazuvchi hukmronligi yo'q. Konstitutsiya inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining inson hayoti, shaxsi va erkinliklarining daxlsizligi kabi deyarli barcha prinsipial qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan. Konstitutsiyada ko'p millatli mamlakatimizda umumiy mustahkam ahloqiy va huquqiy hudud yaratish g'oyasi o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mustaqil izlanish natijasi bo'lib, u haqiqatan ham mustaqillik va ozodlikka umumxalq intilishini o'zida ifodalagan. Qonun chiqaruvchi organimiz konstitutsiyaviy binoni qura turib, ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan davlatimiz tajribalariga tayangan.

Konstitusiyada quyidagilarda jahon konstitusiyaviy tajribasiga tayanilgan:

1-konstitusiyaviy tartibga solish prinsiplari, bu hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, inson huquqlari, xalqaro huquq normalarini e'tirof etish, konstitusiyaning barqarorligi.

2-muqaddima va bo'limlar, boblar, moddalar bo'yicha matnni tashkil qilish, shuningdek, ularning joylanishi mantig'i; *real, davlat va ijtimoiy hayotni cheklab qo'yadigan ortiqcha reglamentasiyaga yo'l qo'ymaslik uchun mazmunining qisqaligi*; kelgusi qonunlarga **“xavola etuvchi”** normalarning yo'qligi ham ushbu maqsadga bo'ysundirilgan.

3-mavkuraviylashtrishni ya'ni bir mafkuraning yakka hukmronligini inkor etish.

4-fikr, so'z, vijdon va e'tiqodlar erkinligi, vatanparvarlik.

5-konstitusiyaviy kafolatlar, konstitusiyaning ustunligi, konstitusiyaviy sudning yaratilishi, konstitusiyaga o'zgartirishlar kiritishning maxsus tartibi.

6-bevosita xalq hokimiyatchiligidan biri bo'lgan, Prezident respublikasi, chunki Konstitusiya Prezidentning davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i belgilab beradi.

O'zbekiston Konstitusiyasi - bu mamlakatning rivojlanishida davlat, jamiyat, madaniy-ma'naviy ehtiyojlar va barqaror konstitusiyaviy rivojlanishga bo'lgan jahon tajribalarining ijodiy birligidir. U qadriyatlarining quyidagi uchtunligini o'rnatadi: “shaxs-jamiyat-davlat”.

Erkin, ongli, mustaqil shaxs -fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi. Fuqarolik jamiyati - mustaqil uyushgan xalq bo'lib, u har qanday hokimiyatning haqiqiy manbai va egasidir. Severin demokratik, huquqiy davlat shaxs □amda jamiyat huquq va erkinliklarining himoyachisidir. SHU ma'noda, konstitusiya fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy shartnoma tarzda maydonga chiqadi.

O'zbekiston Konstitusiyasi xalqaro huquq normalarining ustunligini tan oladi:

birinchidan-Konstitusiyada yozilgan, inson huquqlarini tan oladi.

ikkichidan-demokratik ideallarga sodiq.

uchinchidan-fuqoroviy tinchlik □amda milliy va millatlararo kelishuvni ta'minlash.

to'rtinchidan-barcha davlatlarning suverineteti, chegaralarining buzulmasligini so'zsiz tan olish.

beshinchidan-kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan ta□lil qilmaslik.

oltinchidan-davlatlararo ba□slarni tinch yo'l bilan □al qilish.

etinchiidan-boshqa davlatlarni ichki ishlariga aralashmaslik.

Ushbu masalaga bunday katta a□amiyat berilishi faqat xalqaro majburiyatlardanгина kelib chiqmaydi. Xalqaro huquqning oliy normalariga sodiqlik o'z milliy manfaatlarimizga javob beradi.

O'zbekistonning Konstitusiyasi xalqimiz umumiy ongining natijasidir, chunki u xalqning intilishlari, orzulari, umidlarini aks ettirgan. U suverin respublika progressiv rivojlanishining konstitusiya degan yuksak nomga to'la mos tushadi. Konstitusiya xalqining manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyatimizning huquqiy asoslarini yaratadi, inson huquqlari, har bir oilaning barqarorligi va munosib hayot kechirishini, butun O'zbekiston xalqining ishonchli kelajagini kafolatlaydi. Xalq o'zi tanlagan yangilanish, taraqqiyot yo'lida yangishi va mehnat qilishi shart bo'lgan shunday konstitusiyaga munosibdir.

SHunday qilib, O'zbekiston konstitusiyasi jahon konstitusiyaviy fondiga tarkibiy qism sifatida kiradi. U umumjahon tarixiy konstitusiyaviy jarayonning yaxlitligini, xalqlar va madaniyatlarning o'tmishidagi o'zaro aloqalarini va bunda -mamlakatning rivojlanishida o'ziga xosliklar borligini hamda uning butun insoniyat umumkonstitusiyaviy huquqiy madaniyatiga alohida ulush qo'shganligini tasdiqladi.

O'zbekiston BMT ning a'zosi, Avropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining, 20 dan ortiq iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning ishtirokchisi, O'zbekiston Respublikasi 190 dan ortiq davlatlar tomonidan tan olingan.

1991 yil 21 dekabr kuni Ozorbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston. Qirg'izisto, moldava, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Ukraina davlatlarining boshliqlari Olmatada uchrashadilar va MDH mustaqil davlatlar hamdo'stligiga asos soladi.

O'zbekiston 1992 yil 28 oktyabarda Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi.

1992 yilning 8 dekabrda O'zbekiston xalqi o'zining to'la huquqli vakillari -parlament a'zolari, ya'ni O'zbekiston Oliy Majlisi deputatlari ishtirokida bugungi kunda amalda bo'lgan Asosiy Qonun -Konstitutsiya qabul qilindi. Bu qonun 6 tabo'lim, 26 ta bob va 128 ta moddani o'z ichiga oladi.

YAngi konstitutsiyaga qadar O'zbekiston hududida bir nechta konstitutsiyalar qabul qilingan. 1918 yil 15 oktyabrda Turkiston Avtonom Respublikasi Konstitutsiyasi, 1927 yil 30 martda O'zbekiston SSRni birinchi Konstitutsiyasi, 1937 yil 14 fevralda ikkinchi Konstitutsiyasi, 1978 yil 19 aprelda uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan edi. YAngi konstitutsiya muhokamasi 1990 yilning iyun oyidan boshlandi. Konstitutsiyani tayyorlash komissiyasiga 6 mingdan ziyod taklif va mulohazalar tushdi. Muhokama natijasida 60 dan ortiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiyani qabul qilishda deyarli hamma vakillar -oliy oliy majlis deputatlari ishtarak etdi.

Konstitutsiya jamiyat va davlat qurilishining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. U davlat suverinetetini mustahkamlab, fuqarolarning jamiyat oldidagi, davlatning fuqarolar oldidagi huquq, erkinlik va burchlarini o'zida mustahkamladi.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagicha ifodalaniladi:

- asosiy huquq va erkinliklarning kafolatlari;
- huquqni hukmronligi;
- konstitutsiya va qonunlarning ustunligi;
- inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish;
- davlat va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati;
- hokimiyatning bo'linishi;
- sudyaning mustaqilligi;
- jinoyat qonunlarining orqaga qaytmasligi;
- huquqiy muhofaza va huquqiy nazorat;
- huquqiy himoyalash va sosial adolat;
- demokratiyaning rivojlanish va takomillashuvi.

**Takrorlash uchun testlar:**

***Davlatning paydo bo'lish sabablarini nimada deb bilasiz?***

- a) ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotida
- b) xususiy mulkni paydo bo'lishida
- s) sinflarni vujudga kelishida
- d) odamlarning jamoa bo'lib yashash ehtiyojlarida.

**Javob:** yuqoridagilarning barchasi.

**MAVZU III**

**2 (coat)**

1. Huquqiy davlat va hokimiyatlarning bo'linishi tamoyili
2. O'zbek milliy davlatchiligining zamonaviy rivojlanishi

**Maqsad:**

a) ta'limiy: -tinglovchilarga huquqiy davlat, hokimiyatlarining bo'linishi, davlatning zamonaviy rivojlanishi to'g'risida bilim berish;

b) tarbiyalovchi: -huquqiy madaniyatni egallash, O'zbekiston qonunlariga rioya qilishni o'rgatish;

v) rivojlantiruvchi: -o'zbek xalqi davlatchiligining zamonaviy rivojlanishiga hissa qo'shish.

Mashg'ulot tipi:

yangi bilimlar berish.

Metodlari: -suhbat, guruhlarda yashash.

Tayanch iboralar: huquqiy davlat, milliy davlatchilik, zamonaviy rivojlanish, vijdon erkinligi.

Davlat talablari:

— davlat huquqi, davlat qurilishining asoslari;

— huquq turlari, vijdon erkinligi, xalq hokimiyatchiligini bilish.

## **RÅJA.**

1. Huquqiy davlat.
2. Hokimiyatning bo'linishi.
3. O'zbek milliy davlatchiligining zamonaviy rivojlanishi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi -huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir, ya'ni

- 1) Qonun chiqaruvchi
- 2) Ijro etuvchi
- 3) Sud hokimiyati davlatning asosiy tayanchidir.

Respublikamizda qonun chiqaruvchi hokimiyat -oliy majlis, ijro etuvchi hokimiyat - Prezident va Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Sud hokimiyat: Konstitusiyaviy oliy sud, xo'jalik sudi, sud tomonidan amalga oshirilib ular birgalikda sud tizimini tashkil etadi. Vakolatli qonun chiqaruvchi hokimiyat.

### **QONUN CHIQUARUVCHI HOKIMIYAT**

1. Respublika Oliy Majlisi
2. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari
3. Xalq deputatlari viloyat Kengashlari
4. Xalq deputatlari tuman Kengashlari
5. Xalq deputatlari shahar Kengashlari

### **IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
2. Davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i
3. Vazirlar Mahkamasi
4. Viloyat tumanlar, shahar hokimliklari

### **SUD HOKIMIYATI**

1. Konstitusiyaviy sud
2. Oliy sud
3. Oliy xo'jalik sudi
4. Qoroqolpog'iston oliy sudi
5. Qoroqolpog'iston xo'jalik sudi
6. Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar sudlari, xo'jalik sudlari.

Fuqorolik jamiyat - haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda ahloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega bo'lgan odamlardan iborat jamiyatdir.

Davlat boshqa narsa, fuqarolar jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko'ra jamoat tashkilotlarining narxi balandroq turadi. I.Karimov 1996 yil -

Bunyodkorlik yo'lidan" asarida; - Fuqarolik jamiyati o'zini o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi. Demokratik jamiyat bu eng avvalo fuqarolik jamiyatidir. CHinakam, demokratiyaning oliy mazmuni shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy -siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi- deb yozganlar.

Qadim SHarqda azaldan huquqiy demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyatining turli elementlari mavjud edi. Bizning yaqin o'tmishimiz jahon demokratik me'yorlariga mos keladigan inson erkin yashash huquqini chegaralab qo'ygan edi. Milsiz zo'rvonlikka tayangan kommunistik siyosat tabiatan ozodlikni yoqtirmaslik yoki demokratiyani tan olmas edi.

### **O'zbekiston demokratiyaning qaysi yo'nalishlaridan bormoqda?**

Huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudka keltirish oliy maqsad ekan, unga erishishning yagona yo'li demokratiyani chuqurlashtirishdir.

Birinchidan, demokratik jamiyatning barpo etishning xalqaro tamoyillari dunyo hamjamiyati e'tirof etgan yo'riqlar mavjud. Bu fuqaroning o'z xoxish irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyo e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquqli, davlat va jamiyat boshqaruvidan qonun ustivorligi, saylov va saylanish huquqiga va boshqalar.

Ikkichidan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Olmoniya, Angliya, Fransiya, kabi mamlakatlar demokratiyasi bilan tanishdi. Prezident har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqish yondashishi zarur. Ayniqsa, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga ega xalq ehtiyojlarini hisobga olmaslik og'ir natijalarga olib kelishi to'g'risida uqtirdi.

Uchinchidan, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik, G'arb demokratiyasini SHarq mamlakatlarda ko'r-ko'rona joriy etish mumkin emas. Uni tanqid qilish ham kutilmagan fejealarga olib kelishi mumkin. Misol:Tojikiston.

To'rtinchidan, odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, xatti-harakatlari va fel'-atvoridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi Xatti-harakatlar, intilishlar, har qanday sharoitda ham umumxalq manfaatlarini hisobga olib, unga tayansagina qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa bebaho mulk.

Demokratiya hududi ana shunday buyuk ne'matdir. Demokratiya faqatgina siyosiy, huquqiy yoki ijtimoiy katigoriya emas, ayni paytda u ma'naviy-ahloqiy kategoriyadir.

Suverenitet - davlat o'z ichki xayotida va tashqi munosabatlarida boshqa davlatlardan mustaqilligidir.

O'zbekiston - suveren demokratik respublika. Davlatning O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan nomlari bor ma'noni anglatadi. (Konstitutsiya - 1 modda).

Davlat suvereniteti nafaqat mamlakat hududida, qolaversa uning chegaralaridan tashqarida ham yuzaga keluvchi muammolarni hal etayotganda hokimiyatni amalga oshirish borasida boshqa davlatlardan to'la-to'kis mustaqillikni anglatadi.

### **Demokratiya — xalq hokimiyatchiligi.**

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi xalqni hokimiyatning yagona manbai deb e'lon qilgan Asosiy qonunda aks ettirilgan. (7-modda).

"Xalq hokimiyatchiligi"- atamasi grekcha demokratiya" (demos-xalq, kratiya-hokimiyat) so'zining tarjimasidir.

*Demokratiya bu:*

- fuqarolarni davlatni boshqarishda ishtirok etishi;
- hammaning va har kimning qonun oldida tengligi;
- jamiyat va inson xavfsizligi;

- fuqarolar va huquq erkinliklarining to'la-to'kisligi;
- inson faravonligi va manfaatlari xususida davlat g'amxo'rligi;
- inson va huquq erkinliklarining muxofazasi kafolatlangan mexanizm mavjudligidir.

O'z tarixi davomida insoniyat demokratiyaning ikki shaklini ishlab chiqdi, 1-bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri demokratiya, bunda xalq davlat ishlarini vakillarsiz xalq qiladi.

2-vakillik demokratiyasi, bunda xalq o'z suveren huquqlarini o'zining saylab qo'yilgan vakillari orqali amalga oshiradi.

O'zbekiston xalqi, misol uchun 2000 yil 9 dekabr o'z mamlakati prezidentini saylaganda bevosita demokratiyadan foydalangan edi.

Davlat miqyosidagi muammolarni xalq bevosita o'zi, referendumda, ya'ni mamlakat siyosiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan umumxalq ovoz berishida ishtirok etganda, umumxalq muhokamasida qatnashganida hal qiladi.

Davlat qaror qabul qilish uchun jamoatchilik fikrini bilishi zarur bo'lib qolganda Konstitutsiya -qonunlarning loyihalari umumxalq muhokamasiga qo'yilishi mumkin.

Referendum butun mamlakat miqyosida yoki mahalliy darajada o'tkazilishi mumkin. Referendumga ma'lum masalaga ovoz beriladi

### ***O'zbekiston Respublikasi xalq hokimiyatchiligi shakllari***

Referendum, saylovlar, yig'ilishlar, mitinglar, namoyoishlar, davlat organlariga takliflar, shikoyatlar va arizalar bilan yakka tartibda va jamoa tarzida murojaat qilish, qonun loyihalari muhokamasi.

**Demokratiya davlatning eng muhim Konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri hokimiyatlar bo'linishi prinsipidir.** (Konstitutsiya 11-modda)

Ana shu prinsipga muvofiq davlatning qonun qabul qilish, ularni ijro etish va odil sudlov bilan bog'liq faoliyati hokimiyatning uch tarmog'i qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida taqsimlanadi.

Jamoat birlashmalari nega kerak?

Jamoat birlashmalari - mamlak aholisi jamiyat hayotida ishtirok etish huquqining amalda namoyon etilishidir.

Fuqarolarning mushtarak manfaatlar asosida ixtiyoriy uyushishi natijasida vujudga kelgan tuzumga jamoat birlashmasi hisoblanadi. Jamoat birlashmalari quyidagi shakllarda mavjud bo'ladi:

- |                          |                       |
|--------------------------|-----------------------|
| -jamoat tashkilotlariga; | -ommaviy harakatlari; |
| -jamoat jamg'armalari;   | -jamoat muassasalari. |

### **Jamoat birlashmalarining turlari:**

Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, jamoat xayriya jamg'armalari, ayollar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, (Konstitutsiya 56-modda).

Jamoat birlashmalari tuzish va faoliyati prinsiplari.

Ixtiyorlik, tengxurlik, o'zini-o'zi boshqarish, oshkoralik, qonunniylik.

Respublikamizda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllanishi.

Siyosiy partiyalar tuzish va ularning ishida ishtirok etish fuqarolarning muhim siyosiy huquqlaridan biri sanaladi.

Tarixning borishi yakkipartiyaviylik tizimi davlatda diktatura o'rnatishga olib kelishini tasdiqladi. Ko'ppartiyaviylik tizimi esa fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olishga va jamiyatni rivojlantirish borasidagi u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'li bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. (Konstitutsiya 60-modda).

Respublikamizda ko'ppartiyaviylik tashkil qilish profesional ketyapti. Hozirda 5 ta siyosiy partiya, 2300 ta jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar bor. Bundan tashqari 22 ta uyushma, 30 dan ortiq jamg'armalar bor.

1. XDP 1991 yil 1 noyabrdan ro'yhatdan o'tgan.

Uning maqsadi: Ijtimoiy adolat, mamlakat taraqqiyoti va ma'naviy yangilanishini ta'minlash.

2. "Adolat partiyasi" 1994 yil 18 fevralda ro'yhatdan o'tgan.

Uning maqsadi: Huquqiy demokratik davlat barpo etish, ijtimoiy adolat o'rnatish.

3. "Milliy tiklanish" 1995 yil 3 iyunda ro'yhatdan o'tgan.

Uning maksadi: Davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanish.

4. "Fidokorlar" partiyasi 1998 yil dekabrda ro'yhatdan o'tgan.

Uning maqsadi: Fuqarolar faoligini oshirish va mustqillik mafkurasining shakllantirish.

2000 yilda "Vatan taraqqiyoti" va "Fidokorlar" partiyalari bitta partiyalarga birlashdilar.

1996 yil 26 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun chiqarildi. Bunda siyosiy partiyalar tushunchasi, uning qarashlari, manfaatlari va maqsadlari partiya a'zolarining huquq va erkinliklari partiyani tuzilishi kabilar 17-moddadan iborat qilib belgilangan.

### **Prezident - davlat boshlig'i.**

Prezident lavozimi jahonda ilk marotaba 1787 yil AQSHda joriy etilgan edi. Dj.Vashington mamlakatning I-prezidenti bo'lgan. Lotincha tarjimasida "Prezident so'zi" "*Oldinda o'tiruvchi*", ya'ni davlat boshlig'i ma'nosini anglatadi. 1996 yilda BMT tarkibida bo'lgan 183 mamlakatdan 130 dan ziyod prezidentlik boshqaruvi shakli mavjud.

Respublikamizda prezidentlik lavozimi 1990 yil martda "O'zbekiston SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida"gi Qonun Konstitusiyaga qo'shimchalar orqali joriy etilgan edi.

XII-chaqiriq Oliy Kengashning 1-sessiyasida I.A.Karimov birinchi prezident etib saylandi. XDP va kasaba uyushmalari federasiyasi nomidagi I.Karimov va "Erk" demokratik partiyasi vakili Salay Madaminov (Muhammad Solix) nomzodi quyildi. Saylov yakuniga ko'ra I.Karimov 86% ni Salay Madaminov nomzodini (12,3%) yoqlab ovoz berdi.

Konstitusiyaning 89-moddasiga muvofiq, Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Ayni paytda Vazirlar Mahkamsining raisi hai hisoblanadi. Islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida Respublika Oliy Majlisining 1995 yil 26 martda I.Karimovning vakolatni 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazildi. Xalq referendumini ijobiy tarzda yakunlandi. Prezident I.Karimovning vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirildi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

#### **1. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tizimi?**

a) Qonun chiqaruvchi hokimiyatga bo'linadi.

b) Ijro etuvchi hokimiyatga bo'linadi.

v) Sud hokimiyatiga bo'linadi

d) Hokimiyatlarning prinsipiga asoslanadi.

Javob: YUqoridagilarning barchasi to'g'ri.

#### **2. O'zbekiston Mustaqil Davlat Hamdo'stligiga kirish to'g'risidagi deklarasiyaga qachon imzo chekkan?**

1991 yil 21 dekabr

## Mavzu: II

(2 soat)

1. Jamiyat, davlat, huquq: zamonaviy rivojlanish tendisiyalari va istiqbollari.
2. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni shakllantirish yo'llari.

**Maqsad:** a) ta'limiy -tinglovchilarga jamiyat, davlat, huquq, zamonaviy rivojlanish haqida bilim berish;

b) tarbiyaviy: fuqarolarning davlatni idora etishda faolligini tarbiyalash;

v) rivojlantiruvchi: -egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay bilishni o'rgatish.

**Mashg'ulot tipi:** yangi bilimlar berish.

**Mashg'ulot metodlari** -suhbat, savol-javob, munozara, test, ko'rgazmalar.

**Tayanch iboralar:** jamiyat, davlat, huquq, fuqarolik jamiyati.

**Davlat talablari:**

—O'zbekiston respublikasining ijtimoiy tuzumi;

—Fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

—Saylovlar, saylov tizimi;

—Jamiyat birlashmalari huquq to'liq tushunchaga ega bo'lislari kerak.

**Reja:**

1. Jamiyat, davlat, huquq
2. Zamonaviy rivojlanish tendisiyalari
3. Fuqarolik jamiyati

### DAVLAT VA HUQUQ - UZVIY BOG'LIQ IJTIMOY HODISALARDIR.

1. Davlat va huquqni shakllantiruvchi siyosiy mexanizm.
2. Davlat va huquqning amal qilinishini kafolatlaydi va uni buzilishidan saqlaydi.
3. Muayyan davlatga huquqning tarixan shakllangan turi mos keladi.
4. Huquqni yuzaga kelishi davlatni paydo bo'lishi bilan bog'liq.
5. Huquq davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi va tartibga soladi.
6. Huquq mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va xalqaro maydonda muomila qilish tilidir.

Demak huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, adolat va erkinlikka asoslangan yurish-turish qoidalarining tizimidir.

### O'zbekistonda fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni yo'llari

O'zbekiston fuqaroligi to'g'risidagi Qonun 1992 yil 2-iyulda tasdiqlangan. Bu qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi asosida qabul qilingan bo'lib, unda fuqarolikning umumiy qoidalari fuqarolikni vujudga kelishi, to'xtalishi, ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olingan bolalarning fuqaroligi bo'yicha ish yurituvchi davlat idoralari, bo'yicha qoidalarining buzulishi ustidan shikoyat qilish tartibi haqidagi huquqiy qoidalar bayon etilgan.

Fuqaro so'zi bu bir mamlakatning doimiy aholisi degan ma'noni bildiradi.

Fuqarolik-shaxsning u yoki bu davlatga mansubligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi respublika fuqaroligini belgilaydi. Bu hol davlat mustaqilligini mustahkamlash ishida juda katta ahamiyatga ega. Hech bir mustaqil davlat, o'z fuqarolarisiz yashashi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida inson huquq -Deklarasiyasiga muvofiq respublika fuqaroligi belgilangan. O'zbekiston respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik o'rnatilgan. Qaroqolpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari o'zaro bog'liq. Birorta

fuqaroni sud qarosiz o'z huquq va erkinliklaridan mahrum etishga yoki ularni cheklashga yo'l quyilmaydi.

**Tabiiy huquq** -insonni jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan huquq va erkinliklari majmuidir. Masalan: nasl qoldirish, siyosiy mulkka ega bo'lish, hayotini va sog'lig'ini himoya qilish, boshqa odamlarga, jamiyatga va davlatga zarar etkazmaslik;

**Pozitiv huquq** -davlat tomonidan qabul qilingan qoidalar Davlat va qonunchilik o'rtasida o'zaro munosabat o'rnatiladi. Huquqning keng yoki tor ma'noda tushunish mumkin emas, u holda huquq o'z ma'nosini yo'qotadi.

#### **O'zbekistonda huquq va uning turlari**

Huquq - davlat tomonidan belgilangan yoki ruhsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalarining tizimi.

Huquq iborasi ikki ma'noda qo'llanadi:

**Ob'ektiv huquq** -umummajburiy hulq-atvor qoidalarining yig'indisidir.

**Sub'ektiv huquq** -muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lgan huquq.

Bu ikkala huquq bir-biriga chambarchas bog'langan, ob'ektiv huquq bo'lmasa sub'ektiv huquq ham bo'lmaydi yoki uning aksi.

Masalan: Avtomobil -sub'ekt, unga bo'lgan egalik huquqi ob'ektiv holat yoki ob'ektiv huquq.

Huquq davlat bilan chambarchas bog'langan. Davlatsiz huquq bo'lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi huquqiy normalarning amalga oshirishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi. O'z navbatida davlat ham huquqsiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositadan mahru bo'ladi.

#### **Huquqning asosiy belgilari:**

1. Barcha uchun majburiyligi.
2. Huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi.
3. Sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilishi.
4. Davlat mtomonidan ta'minlanganligi.

Huquq davlatdan ajralmasdir. Rim huquqida huquqning halol yashash, o'zgalarning xafa qilmaslik, har kimga keraklisini berish kabi qoidalarni yozib qo'yilganligi. Huquq ezgulik va adolat san'atidir.

### **Huquqning asosiy funksiyalari -tartibga solish va muhofaza qilishdir.**

**Tartibga solish funksiyasi** -amaldagi ijtimoiy aloqalar va tartiblarni mustahkamlash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va u yoki bu sub'ektning faol huquqini ta'minlash.

**Muhofaza qilish funksiyasi** - huquqiy himoya va yuridik javobgarlik choralari belgilash, shaxslarning zimmasiga mas'uliyat yuklash tartibini o'rnatish.

Musunlik huquqini islom diniy tizimi bilan chambarchas bog'liqdir.

**SHariat Islom huquqi** - Qur'oni Karim, hadis qiyosidagi Qonun va Qoidalar.

Bundan tashqari Amir Temurning adolat devoni, davlatni idora etishdagi siyosiy, huquqiy qarashlari bayon etilgan.

Respublikamizda huquq tizimi quyidagi asosiy tarmoqlarini o'z ichiga oladi:

1. Konstitusiyaviy huquq	8. Oila huquqi
2. Ma'muriy huquq	9. Ijtimoiy ta'minot huquqi
3. Fuqarolik huquq	10. Ekologik huquq
4. Jinoyat huquq	11. Moliyaviy huquq
5. Ar huquqi	12. Fuqarolik - prosessual huquq
6. Agrar huquq	13. Jinoyat - prosessual huquq
7. Mehnat huquqi	14. Xo'jalik - prosessual huquq

Avvalgi 3 ta huquqni, ya'ni, konstitusiyaviy, ma'muriy va jinoyat huquqlarini asosiy huquq tarmoqlari deb hisoblash qabul qilingan.

YUqoridagi sanab o'tilganlardan, ya'ni, 1-10 tasigacha moddiy mulk tarmog'i bo'lsa, keyingi uchtasi prosessual huquq tarmog'idir.

**Konstitusiyaviy huquq** -konstitusiyaviy tuzim asoslari, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, mamlakatning davlat tuzilishini, Prezident, Oliy Majlis, hukumat, sud tizimi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini mustahkamlab qo'yadi.

**Ma'muriy huquq** -davlat boshqaruvi, ijroiya hokimiyat sohasi (hukumat faoliyati, ijroiya hokimiyatning boshqa organlari) da yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

**Fuqarolik huquqi** -mulkiy va u bilan bog'liq shaxsiy munosabatlar (ismga ega bo'lish huquqi, mualliflik huquqi va x.k.)ni tartibga soluvchi huquq sohasidir.

**Jinoyat huquqi** - yordamida davlat qanday ijtimoiy xavfli qilmishlarning jinoiy ekanligini va ularning sodir etilganligi uchun qanday jazolar tayinlashi mumkinligini belgilab beruvchi normalarni o'z ichiga oladi.

**Ar huquqi** - erga egalik qilish, undan foydalanishi va uni tasarruf etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

**Agrar huquq** -qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tarmoqdir.

**Mehnat huquqi** -mehnat munosabatlarini kelib chiqishi, o'zgarishi va to'xtalishi shartlarini belgilovchi, ish kuni va dam olishning davomiyligini, mehnat intizomi, o'smirlar va ayollarni muhofaza qilish kabilarni belgilovchi huquqiy normalarning yig'indisi.

**Fuqarolik-prosessual huquq** normalari sudlarning fuqarorilik, oilaviy, mehnat, er, moliyaviy munosabatlar va boshqa bir qator masalalar sohasidagi faoliyatini tartibga soladiyu Fuqarolik- prosessual huquqga ishlarning cho'jalik sudlari tomonidan qo'rib chiqilishi tartibini boshqaradigan xo'jalik -prosessual huquqi yaqin turadi.

**Jinoyat-prosessual huquqi** sudlov, tergov, prokuratura organlarining jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rib chiqish faoliyatini tartibga soladi.

### **O'zbekistonda huquq manbaalari:**

1. Xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari.

2. Qonunlar.

3. Qonun osti xujjatlar.

Xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari-xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo'lib, xalqaro huquqning barcha sub'ektlari tomonidan tan olingan va ularni bajarmaslikka yo'l qo'ymaydi. Ular ichida suverenitet xurmat qilish, zudlik ishlatish bilan tahdid qilmaslik, davlatning hududiy yaxlitligi, chegaralarning buzulmasligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqlarning tenghuquqliligi va o'zining taqdirining o'zi belgilash huquqi, insonning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni ivjdonan bajarish kabilar bo'lishi mumkin.

**Xalqaro shartnoma** -bu xalqaro huquqning yoki bir necha sub'ekt tomonidan qabul qilingan bitim bo'lib, huquq va majburiyatlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi xujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va maxsus masalalar bo'yicha bir necha ming shartnoma tuzgan. 1995 yilda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro shartnomalarning qoidalari O'zbekiston qoidalariganisbatan ustunlikka ega.

Respublikamizda qonunlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Asosiy qonun -Konstitusiya

2. Konstitusiyaviy qonun
3. Qonun
4. Qoraqolpog'iston Respublikasining Konstitusiyasi va Qonunlari
5. Qonunosti xujjatlar -bular qonunlar asosida qabul qilingan normativ- huquqiy xujjatlardir.

Ularga quyidagilar kiradi:

- Respublika Prezidenti Farmonlari
- O'zbekiston hukumatining qarorlari
- Boshqa ijroiya hokimiyat organlarining xujjatlari

Ushbu qonunosti xujjatlar tizimida Respublika Prezidentining farmonlari alohida o'rin tutadi, chunki ularni davlat boshlig'i chiqaradi.

Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo'jalik va madaniy qurilishining eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. O'zbekiston Konstitusiyasida qaror topgan va xalqimizning qadimiy an'alariga xos bo'lgan vijdon erkinligiga katta e'tibor va sidqidildan hurmat ifodalangan.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari jahon miqyosida ham bir nechta qonuniy xujjatlarda belgilab berilgan. BMT inson huquqlari himoya qiladigan tashkilotdir. 1945 yil 24 oktyabr tarixda BMT tashkil topdi dastlabki yil unga 50 ta davlat a'zo bo'lib, hozirda 190 ta davlatga yaqin BMT a'zo bo'lib turadi. Inson huquqlarini BMTning 4 ta asosiy huquqiy xujjatlari belgilangan:

1. Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasi -1948 yil
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt -1966 yil
3. Fuqarodlik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt -1966 yil
4. Boj huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va boshqa ko'plab xujjatlar 1989 yil

O'zbekiston Konstitusiyasida mustahkamlab qo'yilgan barcha huquq va erkinliklarni, burchlarini ajratish mumkin.

#### ***SHaxsiy huquqlar:***

**YAshash huquqi 24-modda** — har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

**25-modda** -har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

**26-modda** -jinoyat sodir etilganda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanadi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech bir qiynoqqa solinishi, zo'rovonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qiymatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Misol: Xo'jabod tumanidagi 14 ta o'g'irlik jinoyatlarini voyaga etkazmagan bola orqali ochilganini ko'rsatish kerak.

**27-modda** - har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotidagi aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan tashqari birovning turar joyiga kirishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalari va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

**28-modda** - O'zbekiston fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

**29-modda** - har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitusiyaviy tuzimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan bog'langan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalan erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taaluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

**30-modda** - O'zbekiston Respublikasi barcha davlat organlari, jamoat birlashmalariga va mansabdor shaxslari fuqarolarga huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan xujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

**31-modda** - hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoxlagan diniga e'tiqod qilish yoki qaysi dinga e'tiqodqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarini majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

#### ***Siyosiy huquq.***

O'zbekiston Konstitutsiyasining quyidagi moddalariga to'la aks ettirilgan.

**32-modda** - O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini bajarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadir. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendum o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**33-modda** -Fuqarolaro'zining ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadir. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlarni o'tkazishini to'xtatish yoki ta'qiqlash huquqiga egadir.

**34-modda** -O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushishi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadir.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qiyimatlarini hech kim kamsitishi mumkin emas.

**35-modda** -har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, taklif va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

#### **III. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.**

**36-modda**- mulkdor bo'lish huquqi.

**37-modda**- mehnat qilish huquqi.

**38-modda**- dam olish huquqi.

**39-modda**- ijtimoiy ta'minot olish huquqi.

**40-modda**- malaka tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi.

**41-modda**- bilim olish huquqi.

**42-modda**- ilmiy va texnikaviy ijod, madaniyat huquqlaridan foydalanish.

#### ***Fuqarolarning burchlari***

**48-modda**- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qiyimatlarini xurmat qilish burchi.

**49-modda**- O'zbekiston xalqining tarixiy, manaviy va madaniy merosini avaylab asrash burchi.

**50-modda**- tabiatga extiyotkarona bo'lish burchi.

**51-modda**- qonun bilan belgilangan soliqlarni to'lash burchi.

**52-modda**- O'zbekiston Respublikasini himoya qilish va harbiy xizmat majburiyati.

Konstitutsiyaning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi -deyilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari", erkinliklari va burchlari deb atalishining o'zi Asosiy qonunning insonparvarligini ko'rsatadi. Fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlanib, ularning ixtiyorlariga berilgan bo'lib, bu huquqlarning amalga oshirilishi me'yoriy qonunlar bilan mustahkamlanadi. Jumladan, fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Vijdon erkinligi va

diniy tashkilotlar to'g'risida"gi 1998 yildagi qonun bilan tartibga solinadi, hamda ularning axlsizligi ta'minlanmoqda.

Fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, faoliyatini tartibga soluvchi 300 dan ortiq qonun va Parlamentning qonunga tenglashtirilgan qarorlar tizimi vujudga keldi, 1500 dan ortiq Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston "Inson huquqlari"ga oid 30 dan ortiq asosiy xujjatlar qabul qildi. 1996 yilda (oktyabr) Respublikamizda "Inson huquqlari" bo'yicha milliy markaz tuzildi.

Respublikamizda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan bir qator ommaviy tadbirlar ham o'tkazildi.

1996 yil may oyida "Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish" mavzusida konferensiya bo'ldi.

1997 yil avgustida esa "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" qabul qilindi. Dasturda: -fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faoligini oshirish, fuqarolarga huquqiy ta'lim-tarbiya berishdir.

O'zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy kurashdan maqsadi - mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinligini to'la ta'minlashdir. Buning uchun, avvalo O'zbekistonda huquqiy asos yaratildi, ya'ni Respublika Konstitusiyasi va qabul qilingan qonunlarda umume'tirof qilingan xalqaro xujjatlar qoidalariga mos keluvchi inson huquq va erkinliklarini belgilab qo'yiladi.

Tarixiy tajribalardan ma'lumki, inson erkinliklarini faqatgina qonunlarda belgilab qo'yishlikning o'zi masalani hal qilmaydi, sobiq ittifoq qonunlarida ham ko'plab huquq, erkinliklar belgilanar, lekin ular amalga oshmay qolar edi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach, inson huquqlari va erkinliklari masalasiga, ularning amalga oshirishini ta'sinlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining o'sha 1996 yil avgust oyida bo'lib o'tgan oltinchi sessiyada Respublika Prezidenti I.A.Karimov "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" mavzusida ma'ruza qilib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim va ajralmas qismi bu inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi uchtidan doimiy nazoratni kuchaytirish, buning uchun nazorat olib boruvchi tuzumlar tizimini takomillashtirib, bu borada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yaxshilash alohida uqtirildi. SHu masalaning ommaviy ifodasi sifatida 1996 yil 11-13 sentyabrda Toshkentda Avropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti "Inson va huquq erkinliklari bo'yicha Milliy muassasalar" mavzusida o'tkazilgan seminarni ko'rsatish mumkin.

Seminarda xalqaro tashkilotlar va ko'pgina xorijiy mamlakatlar vakillarining e'tirof etishga inson huquqlarini ta'minlash borasida Respublikamizda ko'pgina ishlar qilingan va davlat siyosati bu masalani yuqori darajada hal qilish nazarda tutilmoqda. Seminarda mamlakatlarda inson huquqlariga rioya etilishni nazorat qiluvchi muassasalarning faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan tavsiya va takliflar bayon qilindi.

Inson huquqlariga amal qilishni ta'minlovchi vositalardan biri har bir kishining o'z huquqini yaxshi biluvchi, huquqiy ongni yuqori darajada shakllanishi hisoblanadi. SHuning uchun Oliy Majlis sessiyasida insonlarning yangicha huquqiy ongini shakllantirish zarurligini qayd qilib, "SHunday bo'lsinki, har birkishi inson erkinliklari - ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va ma'suliyatli ekanligini chuqur his etib tursin". Barcha o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga "Inson huquqlarini himoyalash" maxsus kursini kiritish, shuningdek, ta'lim va tarbiyani butun jarayoniga insonparvarlik zarur deyiladi.

Prezidentning ko'rsatmasini amalga oshirish va inson huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni barcha ta'lim tizimida o'tishini nazarda tutgan holda, ushbu bugungi sizlarga xavola qilingan ma'ruzani Andijon viloyati xalq ta'limi pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'quv planida rejalashtirilgan.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

##### ***1. O'zbekistonda davlat hokimiyatining birdan-bir manbai***

- a) Xalq
- b) Mulk
- v) Partiyalar
- d) Jamoa tashkilotlari

**2. Qaysi harakatlar Konstitusiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi?**

- a) Hokimiyat idoralarini to'xtatib qo'yish yoki tugatish
- b) Davlat hokimiyati vakolatlarini o'zgartirish
- v) Hokimiyatni yangi mavozit (parallel) tarkiblarini tuzish
- d) Javob a,b,v lar to'g'ri.

**3. Huquqiy davlatni belgilovchi jihatlar nima?**

- a) YUksak rivojlangan iqtisod
  - b) YUksak rivojlangan fan va madaniyat
  - v) Davlat o'z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonunchilik asosida amalga oshiradi.
  - d) Davlatning uning Prezidenti tomonidan yakka boshqaruvi.
- Javob: a,b,v,d lar to'g'ri.

**4. Fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday yo'nalishlarga ajratilgan?**

- a) fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari
  - b) fuqarolarning siyosiy huquqlari
  - v) fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari
- Javob: a,b,v lar to'g'ri.

**5. Fuqarolarning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlash va mehnat qilish huquqlari qaysi huquqqa kiradi?**

- a) fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari
  - b) fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari
  - v) fuqarolarning siyosiy huquqlari
- Javob: a,b,v lar to'g'ri.

**6. Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi nima?**

- a) xoxlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi
  - b) boshqalarning fuqarolarning siyosiy huquqlari
- va erkinliklarini xurmat qilishi
- v) respublikadagi xalqlarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrashi
  - d) vijdon buyurgan barcha ishni qilishi
- Javob: a,b,v,d lar to'g'ri.

### **Adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston respublikasi Konstitusiyasi Toshkent. O'zbekiston 2003 yil.
2. I.Karimov Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Toshkent. O'zbekiston 1996 yil.
3. I.Karimov Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. O'zbekiston 1993 yil.
4. A.Azizxo'jaev Davlatchilik va ma'naviyat. T.SHArq. 1997 yil.
5. O.Karimova va boshqalar. Davlat va huquq asoslari (o'quv qo'llanmasi) Toshkent 1996 yil.
6. Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2005-yil 29-yanvar "Ma'rifat".

7. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 13-yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimdagi ma'ruzasi. "Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat". 2005-yil 10-dekabr "Ma'rifat".
6. O.Ominova Davlat va huquq asoslari kursida ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quv qullanmasi. Sharq. Toshkent. 1997 yil.
7. O'zbekiston Respublikasining Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dastur. Toshkent 1997 yil.
8. A.Saidov, U.Tojixonov Davlat va huquq asoslari. Toshkent. 1999 yil.
9. O.Xusanov, O.Karimova, X.Azizov, X.To'ychieva, Z.Karimov Inson huquqlari. maxsus kurs. Toshkent. 1997 yil.
10. A.Saidov, U.Tojixonov Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent. 2001 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Q'onuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi PF-3431-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004–yil 9-iyuldagi 321-sonli qarori.
14. Xalq ta'limi vazirligi Hay'at majlisining "Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablarining bajarilishi ahvoli va istiqboli haqida"gi 2004-yil 10-oktabrdagi 12/1-raqamli qarori.
15. A.Avloniy nomidagi XTRXMIMI ning 2004-yil 3-avgustdagi ilmiy kengashi tavsiyalari.
16. O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2002-yil 26-apreldagi 70-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2005-yil 23-fevraldagi 2/1-XB-sonli buyruqlari.
17. O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2005-yil 10-noyabrdagi 35-sonli Hay'at qarori.
18. A.Avloniy nomidagi XTRXMOMI ning taqvimiy-mavzuiy reja va o'quv dasturlari bo'yicha Axborotnomaning maxsus sonlari (1-4 qismlar).
19. A.Avloniy nomidagi XTRXMOMI ning 2005 yil 30 dekabrdagi 01/9-326-sonli xati va tavsiyanomasi.
20. XTVning 2006 yil 7 iyundagi 149-sonli "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i.

**IJTIMOIIY FANLAR VA  
MA'NAVIYAT ASOSLARI  
KAFÄDRASI O'QITUVCHISI:**

**Q.ZULUNOV**

**Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha davlat talablari,  
taqvimiy-mavzuiy reja, o'quv dasturi**

## **Davlat talablari**

### **Kurs tinglovchilari:**

- Kadrlar tayyorlash milliy modelini bilishi;
- Umumiy o'рта ta'lim muassasalari haqidagi Nizom va umumiy o'рта ta'limga tegishli boshqa huquqiy, me'yoriy, uslubiy hujjatlarni bilishi;
- Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha umumiy o'рта ta'limning davlat ta'lim standartlarini va ular asosida tuzilgan o'quv dasturlarni mukammal bilishi;
- Yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini avvalgi dastur va talablardan farqini aniq bilishi;
- Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha umumiy o'рта va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha o'quv xonalari, fan kabinetlari va laboratoriyalarni namunaviy jihozlash ro'yxati, normativlarini mukammal bilishi;
- Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishda turli texnika vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlardan foydalanish va ularni tahlil qila olishi;
- Yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardor bo'lishi, o'quv mashg'ulotlarida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- O'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlarini tashkiliy va uslubiy ta'minlashni bilishi;
- O'рта Osiyo mutafakirlarining iqtisodiy qarashlarini bilishi va iqtisodiy ta'lim jarayonida joriy qila olishi;
- Mutaxassisligini bo'yicha ilg'or ish tajribalarini o'rganishi va o'z faoliyatiga tatbiq eta olishi;
- Iqtisodiy bilim asoslari – fani bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar olib borishi va to'garaklar tashkil qila olish yo'l-yo'riqlarini bilishi;
- Sinf rahbari ishining mazmun mundariyasi, shakl va usullarini bilishi va uni olib borish malakasiga ega bo'lishi;
- Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ulaga tabaqalashgan ta'lim berish yo'llari va usullarini egallashi, olimpiadalarga tayyorlashi;
- O'z mutaxassisligi bo'yicha muammolar, yangiliklar, ilmiy izlanishlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- UO'T muassasalarida tajriba-sinov ishini olib borish tartib-qoidalarini bilishi;
- Mustaqil xo'jalik hisobi yuritishni bilishi;
- Darslarni kuzatish va tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi;
- O'quvchilarni aqliy iqtisodiy faoliyat ko'rsatishga tayyorlay olishi;
- UO'T muassasalarida pedagoglarni attestasiya qilish va toifalarini ko'tarish tartib-qoidalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- O'quvchilarni kasbga yo'llash ishlari tartibi, maqsad va vazifalarini bilishi va Iqtisodiy bilim asoslari fani bo'yicha kasbga yo'llash ishlarini olib bora olishi;
- Mustaqil ravishda va masofadan turib o'z malakasini oshirishning yo'l-yo'riqlarini bilishi va egallashi;
- Iqtisodiy tizimlar; bozor iqtisodiyoti va uning rejali iqtisoddan afzalligi, ehtiyoj va zahiralar, talab va taklif, ishlab chiqarish, mulk, mulkchilik shakllari, davlat mulkini xususiyashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyot, menejment va marketing, tadbirkorlik va kichik biznes, (biznes reja tuzish), iqtisodiyotni erkinlashtirish, soliqlar, byudjetni shakllantirish, bank va moliya tizimi, kredit va kredit turlari, investitsiya, eksport, import, pul, pul emissiyasi, inflyatsiya, narxlar, monopoliya, antimonopolistik siyosat, agrar munosabatlar, iste'molchilar huquqini himoya qilish, jahon iqtisodiyotiga oid bilim va malaka egasi bo'lishlari lozim.

